

"UNICON-SOFT" MChJ nomidan direktor **XABIBULLAYEV SHERZOD XAYRULLA O'G'LI, Ustav** asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin Operator deb ataluvchi bir tomonidan va **UCHQUDUQ TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI** nomidan **FARXOD XASANOV MURATOVICH**, undefined asosida faoliyat ko'rsatuvchi bundan keyin Abonent deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan, birlashtirishda Tomonlar deb ataluvchilar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 maydagi "IJRO.GOV.UZ" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-sun Qarorini bajarish maqsadida mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ijro intizomi yagona idoralararo elektron tizimi, IJRO.GOV.UZ (bundan keyin - Tizim) – bu Operator tomonidan ishlab chiqilgan va unga tegishli bo'lgan, davlat organlarida elektron hujjat aylanishi va ijro intizomining nazoratini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy kompleks.

Abonent – Operator bilan Tizimdan foydalanimi Elektron hujjat aylanishi va ijro intizomini nazorat qilish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Foydalanuvchi – o'z lavozim majburiyatlari sababli Tizimning oxirgi foydalanuvchisi hisoblanadigan, Abonent xodimi bo'lgan (yoki unga tenglashtirilgan shaxs) jismoniy shaxs.

Tizim moduli – Abonentga qo'shimcha imkoniyatlarni beruvchi va Tizimning asosiy funksionali hamda vazifasiga ta'sir ko'rsatmaydigan Tizimning qismi. Moduldan foydalanish Abonent uchun ixtiyoriy hisoblanadi.

Shaxsiy kabinet – Abonentga Foydalanuvchilarni qo'shish/chiqarib tashlash orqali mazkur Shartnoma bo'yicha xizmatlardan foydalanish, shuningdek statistika ma'lumotlarini ko'rib chiqish va Foydalanuvchilarning faolligi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish imkonini beradigan Tizimning bo'limi.

Elektron raqamli imzo (bundan keyin - ERI) - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Operator Abonentga IJRO.GOV.UZ Ijro intizomi yagona idoralararo elektron tizimining ishlashini ta'minlash xizmatlari kompleksi (bundan keyin – «Xizmatlar»)ni ko'rsatadi, bu xizmatlar quyidagilardan iborat:

- Abonentni Tizimda ro'yxatga olish va aktivatsiya qilish;
- Abonentga Elektron raqamli imzo (ERI) kalitlarini topshirish;
- Tizimdan foydalanishni o'rgatish va Abonentni texnik qo'llab-quvvatlash.

1.2. ERI kalitlari Abonentga Tizimga birinchi marta ulanganda himoyalangan apparat vositasida bir marta taqdim etiladi va keyinchalik Tizimda Abonent xodimlarini identifikatsiyalangan avtorizatsiya qilish uchun foydalaniladi.

1.3 Tizimning huquqiy egasi hisoblangan Operator Tizimga egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarishni, shu jumladan Tizimning to'liq texnik ishlashini ta'minlash, kuzatishni va Tizimdan foydalanish qoidalarini belgilashni amalga oshiradi.

2. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. ERIni o'z ichiga olgan bir dona **himoyalangan apparat** vositasining narxi QQSSiz **260,000, 00 (ikki yuz oltmis ming)** so'mni tashkil qiladi va bir marta to'lanadi.

2.2. ERIni o'z ichiga olgan himoyalangan apparat vositasining umumiyligi miqdori **2** donadan iborat va ERIni o'z ichiga olgan himoyalangan apparat vositasining umumiyligi summasi QQSSiz **520,000 (besh yuz yigirma ming)** so'mni tashkil qiladi.